



## Moliyaviy nazorat

*Termiz Iqtisodiyot va Servis Universitet*

*3 -kurs talabasi*

*Avazova Xolida*

*Termiz iqtisodiyot va servis universitet Iqtisodiyot va axborot*

*texnologiyalari fakultet dekani*

*Yarmatov Sharofiddin*

**Annotatsiya.** Maqolada davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslari, moliyaviy nazoratning tushunchalari va mohiyati, uning mazmuni va turlari bo'yicha moliyaviy huquq sohasidagi olimlarning qarashlari o'rganildi. O'rganib va ko'rib chiqilgan nazariy qarashlar va tavsiyalar moliya sohasidagi olimlar va amaliyotchilar uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazoratining mazmuni, moliyaviy nazoratning mohiyati, moliyaviy nazoratni tasniflash, nazorat belgilari, nazorat turlari.

**Аннотация.** В статье изучены теоретические и правовые основы государственного финансового контроля, понятия и сущность финансового контроля, взгляды ученых финансового права на его содержание и виды. Изученные и рассмотренные теоретические взгляды и рекомендации могут быть интересны и полезны для ученых и практиков в области финансов.

**Ключевые слова:** государственный финансовый контроль, финансовый контроль, содержание государственного финансового контроля, сущность финансового контроля, классификация финансового контроля, признаки контроля, виды контроля.

**Abstract.** The theoretical and legal foundations of state financial control, concepts and essence of financial control, views of financial law scholars on its



content and types were studied in the article. The theoretical views and recommendations studied and reviewed can be interesting and useful for scholars and practitioners in the field of finance.

**Key words:** state financial control, financial control, content of state financial control, essence of financial control, classification of financial control, signs of control, types of control.

## KIRISH

Moliya tizimi - iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti. Moliya tizimi faqat moliya munosabatlarini emas, balki moliyaga taalluqli siyosiy, tashkiliy munosabatlarni ham qamrab oladi. Bu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a) moliya obyektini hosil etuvchi pul fondlari yoki moliya resurslari;
- b) korxonalar, xonadonlar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlaridan iborat moliya munosabatlarining subyektlari - ishtirokchilari;
- v) moliya mexanizmi, ya'ni moliya munosabatlarida qo'llaniladigan va pul bilan bog'liq vositalar (foyda, zarar, rentabellik, likvidlik, byudjet, byudjetdan tashkari fondlar, subsidiya, subvensiya, dotatsiya, sanatsiya, moliya normativlari, moliyaviy sanksiya va boshqalar);
- g) moliya institutlari va davlatning moliya idoralari (moliya kompaniyalari, moliya jamg'armalari, moliya vazirligi, uning mahalliy bo'linmalari, soliq idoralari, g'aznachilik xizmati, soliq politsiyasi va boshqalar);
- d) moliya bozori — fond bozori, sug'urta xizmati bozori, valyuta bozori;
- e) moliya siyosati — iqtisodiyot subyektlarining moliyaga oid yo'l-yo'riqlari va xatti-harakati.

Moliya tizimi iqtisodiy tizimning muhim unsuri, uning yordamida iqtisodiyot tartiblanadi, iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

S. O. Shohin, L. N. Voronina moliyaviy nazoratni tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan davlat va jamoat organlari tizimi sifatida belgilaydi, ularning faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash va davlat byudjetiga daromad olishning o‘z vaqtida va to’liqligi. Nazorat, o‘z navbatida, qonunlarni ustivorligini ta’minalash maqsadida, doimiy ravishda amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat qilish orqali talqin qilishda nazorat maqsadi buziladi.

Boshqa mualliflar, masalan, Yu. M. Voronin, moliyaviy nazoratni faqat qonuniylikni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv obektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ham ko’rishadi.

Xuddi shunday, "davlat moliyaviy nazorati" tushunchasi boshqaruvning nazorat funksiyasi yoki moliya nazorat funksiyasi sifatida qaraladi.

Shunday qilib, individual mutaxassislar to’g’ridan-to’g’ri moliya nazorat funksiyasi bilan davlat moliyaviy nazorati bog’laydi.

Haqiqatan ham, davlat moliyaviy nazorati yalpi ichki mahsulotning taqsimlanishini, tegishli mablag’lar bo'yicha milliy daromadni nazorat qilishni va ularni maqsadga yo’naltirishni o‘z ichiga olgan moliyaviy nazorat funksiyasidir. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan talqinga asoslanib, davlat moliyaviy nazorati doirasida faqat markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag’larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishning qonuniyligini aniqlash ko’zda tutilgan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Rasulova, Shaxnoza Xatamovna (2021). ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to'g'ri hisobga olish zaruriyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 713-718.



## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Davlat moliyaviy nazoratining ushbu shakllarining tahliliga ham qisqacha to'xtalib ketadigan bo'lsak, tekshirish □ bu xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga ularning qanchalik rioya qilayotganligini va qonunchilik hujjatlarini bajarayotganini nazorat qiluvchi organlar tomonidan bir martalik nazorat qilishidir. Moliyaviy nazorat shakli sifatida taftish moliyaviy nazoratninf muhim ahamiyatli shakli bo'lib, o'zining maqsadi va obyektlari hamda moliyaviy nazoratni samarali ta□minlay olishi jihatidan eng muhim nazorat shakli deyishimiz mumkin. Taftish □ nazorat qiluvchi organ tomonidan taftish qilinayotgan moliyaviy nazorat subyektining xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini va asosliligini, ushbu subyektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatalrini, hisobotlarini o'rganish, ularda aks ettirilganlarni tekshirish va taqqoslashdan iborat bo'lган moliyaviy nazorat harakatlari majmuidir. Tekshirish va taftishni qiyoslaydigann bo'lsak, biri nazoratning torroq ko'rinishi bo'lsa, ikkinchisi nazoratning kengroq olib borilishini anglatuvchi tushunchadir.

Moliyaviy nazoratning shakllarini ko'rib chiqishdan oldin, bu tushunchaning o'ziga ta□rif berib o'tsak. Moliyaviy nazoratning shakllari □ nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalgaoshiriladigan nazorat funksiyasini bajarish uchun mo'ljallangan nazorat harakatlarini aniq ifodalash hamda tashkil etishning uslublaridir. Moliyaviy nazorat shakllari sifatida ilmiy adabiyotlarida va qonunchilik hujjatlarida quyidagilarni ko'rsatib o'tgan: dastlabki moliyaviy nazorat, joriy moliyaviy nazorat va yakuniy moliyaviy nazorat. Bu tasniflanish bir-biriga uzviy bog'liq bo'lган nazorat harakatlarini ifoda etib, ularning uzliksizligini ko'rsatadi. Turlarga bo'lishda nazorat harakatlarining amalga oshirish vaqtini hamda ularni o'tkazishning ayrim o'ziga xos jihatlari asos qilib olingan.

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarning bajarilishidan oldin ro'y berganligi uchun o'zida ogohlantiruvchi xususiyatni aks ettiradi hamda xo'jalik



yurituvchi subyektlarni moliyaviy faoliyati davomida yuz berishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni sodir etishdan ogohlantiradi. Qonunchiligidan ko'ra dastlabki moliyaviy nazoratni moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilguncha g'aznachilik bo'linmalari moliya organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bajaradi. Ushbu moliyaviy nazoratning ahamiyatli jihatini qonunbazarliklarning oldini olinishida, xato va kamchiliklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, yo'qotishlarning yuz bermasligida deb aytishimiz mumkin.

Joriy moliyaviy nazorat avvalgisidan farqli ravishda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida o'tkaziladi. Ushbu nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan moliyaviy nazoratning subyektlari sifatida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organalari namoyon bo'ladi. Adik Lining fikricha, □joriy moliyaviy nazorat operativ boshqarish va tartibga solishning jarayoning uzviy qismidi□. Budget qonunchiliga ko'ra moliyaviy nazoratni usullarga bo'lish ikki xil asos bo'yicha bo'ladi. Hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab: yoppasiga va tanlov asosidagi nazoratga bo'linadi. Yoppasiga nazoratda tekshirilishi belgilangan davr uchun barcha turdag'i hujjatlar: buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat ostiga olinadi. Tanlov asosidagi nazoratda esa muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning faqatgina ayrim qismlari nazorat qilinadi.

Moliyaviy nazoratning yo'naltirilgan maqsadiga va predmetiga qarab quyidagi:

- kompleks nazorat;
- mavzuli nazorat;
- muqobil nazorat usullariga bo'linadi.

Kompleks nazorat □ moliyaviy nazorat obyekti hisoblanmish korxona, tashkilot va muassasaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatining barcha yo'naliislarni har tomonlama nazorat qilish tushuniladi. Ushbu nazorat turida korxona, tashkilot



va muassasaning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining butligi hamda ulardan maqasdli foydalanish, buxgalteriya hisobi, hisobotinign holati va sifati kabi jihatlar nazorat ostiga olinadi. Shuni ham taʼkidlab oʼtish joizki, nazoratning tor texnikaviy va texnologik masalalari uchun ushbu sohaning mutaxassislari jalb etiladi.

Mavzuli nazorat — bir turdagи korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xoʼjalik faoliyatining maʼlum bir qismi uchun, jumladan, xoʼjalikka xos boʼlgan tipik kamchiliklar va qonun buzilishlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish maqsadida tashkil etiladigan moliyaviy nazorat usuli hisoblanadi. Muqobil nazorat - operatsiyalar yagonaligi bilan oʼzaro bogʼliq boʼlgan va turli davlat moliyaviy nazorati obyektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni oʼz ichiga olgan tekshirish, bundan tadbirkorlik subyektlari mustasno.

Muqobil nazorat oʼzaro bogʼliq boʼlgan turli xoʼjalik yurituvchi subyektlarda yoki bir xoʼjalik yurituvchi subyektning turli boʼlinmalaridagi moliyaviy hujjatlarni taqqoslash orqali amalga oshiriladi hamda ushbu nazorat turida xoʼjalik yurituvchi subyektlarga bormasdan turib oʼtkaziladi. Muqobil nazorat jinoyat ishlari boʼyicha yoxud nazorat qiluvchi organning qarori asosida oʼtkaziladi hamda muqobil tekshirish predmetiga taalluqli boʼlgan hujjatlarga talab qilib olinadi va tekshiriladi.<sup>2</sup>

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy nazoratning turli xil asoslarga koʼra turlarga, usullarga va shakllarga boʼlinishini tadqiqotchi olimlarning qarashlari hamda qonunchilik hujjatlarida belgilab qoʼyilgani boʼyicha koʼrib chiqdik. Moliyaviy nazoratni samarali, maqsadli tashkil etish va koʼzlangan maqsadga erishishda

<sup>2</sup> Raximjonov, Umidjon Raximjon OʼGʼLi, Qudbiyev, Nodir Tohirovich, & Qayumov, Nozimjon Adxamjon oʼgʼli (2021). bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan oʼrni va ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 719-723.



moliyaviy nazorat obyekti, subyektining va ularning faoliyatining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish hamda shu asosda nazorat usullari va turlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

## FOYDALANILGANN ADABIYOTLAR

1. Abduraximov, Boburjon Umarjon O'g'li, Qudbiyev, Nodir Tohirovich, & Mominov, Ikromjon Luxmonjon o'g'li (2021). aylanma mablag'larni boshqarish tijorat korxonasi muvaffaqiyatining asosi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 724-733.
2. Rasulova, Shaxnoza Xatamovna (2021). ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to'g'ri hisobga olish zaruriyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 713-718.
3. Abduxalimovna, A. Z., & Nabihevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. central asian journal of innovations on tourism management and finance, 2(11), 86-92.
4. Raximjonov, Umidjon Raximjon O'G'Li, Qudbiyev, Nodir Tohirovich, & Qayumov, Nozimjon Adxamjon o'g'li (2021). bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan o'rni va ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 719-723.
5. Qudbiyev, Nodir Tohirovich. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi - Relevance of the transition to international financial accounting standards. SJ international journal of theoretical and practical research, 1(2), 56-64.
6. Shokiraliyevich, G. I. (2021). Role of information and communication technologies in accounting and digital economy. south asian journal of marketing & management research, 11(5), 17-20.